XALQ DEPUTATLARI BOYSUN TUMANI KENGASHINING QARORI

190400, Boysun tuman, Hayot abadiy ko'chasi 1-uy, tel (376)33 53259

2022 - yil 24 - fevral VI-44-18-8-110-K/22 Boysun tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi 2016-yil 16-sentyabr kunidagi qonuniga asosan, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitusiyaviy tuzumni himoya qilish, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta’minlash, shuningdek, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida

2021-yilning 12 oyida, viloyatda **“mahallabay”** va **“fuqarobay”** ishlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish natijalari, hamda jamoat xavfsizligini mustahkamlash borasida tub islohotlar amalga oshirilib, ushbu yo‘nalishdagi ishlar izchil davom ettirilmoqda.

Shu asosda, “Xavfsiz shahar” va “Xavfsiz hudud” konsepsiyalari joriy etilgani, jinoyatchilikni jilovlash hamda huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish borasida mahalladagi muammolarini “mahallabay”, “sohabay” va “oilabay”, “fuqarobay” aniqlab, “xavfsiz hovli” tamoyili asosida mahallalarda “ijtimoiy profilaktika" tizimini yo‘lga qo‘yilganligi, fuqarolarimizda “Adolat va qonun ustuvorligi”ga ishonch hissini yanada oshirmoqda.

Shuningdek, 2022-yil “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da shiddat bilan o‘zgarib borayotgan jonajon vatanimizga bor kuch-g‘ayratimizni safarbar etib xizmat qilishimizni ko‘rsatadi.

Olib borilgan qator profilaktik tadbirlar natijasida

–nomusga tegish;

–bosqinchilik;

–voyaga yetmaganni jinoyatga jalb qilish;

–odam savdosi jinoyatlari sodir etilishiga yo‘l qo‘yilmadi.

Ammo 2021 yilning 12 oyi davoimda tuman hududida sodir etilgan jinoyatlar soni 88 taga (135/223) yoki +65,2 foizga ko‘paydi, jinoyat qidiruv sohasidagi jinoyatlar soni 37 taga (111/148) yoki +33,3 foizga oshgan.

Mavjud 39 ta mahallalarning 18 tasida jinoyatlar soni oshgan, jumladan,

Inkabod (2/5) 3 taga yoki 150 foizga

Tuzbozor (2/6) 4 taga yoki 200 foizga

Qizilnavr (1/2) 2 taga 100 foizga

Yuqori Machay (2/9) 7 taga yoki 350 foizga

To‘da (2/3) 1 taga yoki 50 foizga

Dashtig‘oz (0/3) 3 taga yoki 100 foizga

Dehibolo (2/5) 3 taga yoki 150 foizga

Shifobuloq (0/2) 2 taga yoki 100 foizga

Obi (4/5) 1 taga yoki 25 foizga

Mustaqillik (2/4) 2 taga yoki 200 foizga

Kosiblar (0/5) 5 taga yoki 100 foizga

Duoba (0/1) 1 taga yoki 100 foizga

Toqchi (0/1) 1 taga yoki 100 foizga

Chilonzor (2/3) 1 taga yoki 50 foizga

Gaza (0/1) 1 taga yoki 100 foizga

Sho‘rsoy (0/2) 2 taga yoki 100 foizga

Tillakamar (0/1) 1 taga yoki 100 foizga

Ko‘lqamish (0/2) 2 taga yoki 100 foizga

Tumanda:

–nomusga tegish;

–bosqinchilik;

–voyaga yetmaganni jinoyatga jalb qilish;

–odam savdosi jinoyatlari sodir etilishiga yo‘l qo‘yilmadi.

Shuningdek, sodir etilgan jinoyatlardan:

– o‘ta og‘ir turdagi jinoyatlar (6/4) -2 taga, yoki 33,3 foizga kamaygan,

– og‘ir turdagi jinoyatlar (29/46) 17 taga, yoki 58,6 foizga oshgan,

–og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar (45/78) 33 taga, yoki 73,3 foizga oshgan.

–qotillik jinoyati tumanning Ko‘chkak mahallasida (2/1) sodir etilishiga yo‘l qo‘yilgan;

– og‘ir tan jarohati yetkazish jinoyati (9/2) kamaygan bo‘lib, ushbu jinoyatlarni mahalla bo‘yicha taxlil qilinganida Mustaqillik MFYda 1 ta Darband MFYda 1 ta sodir etilishiga yo‘l qo‘yilgan;

– qasddan badanga o‘rtacha og‘irlikda tan jarohati yetkazish jinoyati (12/19) oshgan bo‘lib, ushbu jinoyatlarni mahalla bo‘yicha taxlil qilinganida, Inkabod MFYda 3 ta, Tuzbozor MFYda 1 ta, Qizilnavr MFYda 1 ta, Mustaqillik MFYda 1 ta, Chilonzor MFYda 1 ta, O‘rta machay MFYda 1 ta, Yuqori Machay MFYda 4 ta, Sayrob MFYda 1 ta, Dehibolo MFYda 4 ta, Darband MFYda 1 ta, Tillakamar MFYda 1 ta sodir etilishiga yo‘l qo‘yilgan.

– qasddan badanga yengil tan jarohati yetkazish jinoyati (12/19) oshgan bo‘lib, ushbu jinoyatlarni mahalla bo‘yicha taxlil qilinganida, Tuzbozor MFYda 2 ta, Qizilnavr MFYda 1 ta, Sayrob MFYda 1 ta, Yuqori Machay MFYda 4 ta, To‘da MFYda 1 ta, Dehibolo MFYda 1 ta, Shirinobod MFYda 2 ta, Darband MFYda 1 ta, Duoba MFYda 1 ta, O‘rta Machay MFYda 1 ta, Chilonzor MFYda 1 ta, Tillakamar MFYda 1 ta, Bibishirin MFYda 1 ta, Kosiblar MFYda 1 ta,sodir etilishiga yo‘l qo‘yilgan.

–bezorilik jinoyati, (12/14) 2 taga 16,6 %ga kamaygan bo‘lib, ushbu jinoyatlarni mahalla bo‘yicha taxlil qilinganida Tuzbozor MFYda 3 ta, Shifobuloq MFYda 1 ta, Obi MFYda 4 ta, Mustaqillik MFYda 1 ta, Kosiblar MFYda 2 ta, Shirinobod MFYda 1 ta, Poygaboshi MFYda 1 ta, Gaza MFYda 1 ta sodir etilishiga yo‘l qo‘yilgan;

-o‘lim bilan bog‘liq yo‘l-transport hodisalari tumanda (10/13) ga oshgan bo‘lib, Inkabod MFYda 1 ta, Temirdarvoza MFYda 2 ta, Sayrob MFYda 1 ta, Shifobuloq MFYda 5 ta, Darband MFYda 1 ta, Xo‘jabulg‘on MFYda 1 ta,

Sho‘rsoy MFYda 1 ta, Kosiblar MFYda 1 tani tashkil etadi.

Mulkka qarshi qaratilgan jinoyat turlaridan:

firibgarlik jinoyati (14/48) taga oshgan bo‘lib, ushbu jinoyatlarni mahalla bo‘yicha taxlil qilinganida, Dashtig‘oz, O‘rmonchi, Bibishirin, Shirnobod, Tuzbozor, Sho‘rsoy, Kosiblar, Mustaqillik, Tog‘chi Chiorchinor MFYda sodir etilishiga yo‘l qo‘yilgan;

o‘g‘irlik jinoyati (27/22) taga oshgan bo‘lib, ushbu jinoyatlar tumanning Inkabod MFYda 3 ta, Yuqori Machay MFYda 1 ta, To‘da MFYda 1 ta, Dashtig‘oz MFY da 3 ta, Shifobuloq MFYda 1 ta, Mustaqillik MFYda 1 ta, Kosiblar MFYda 1 ta, Tog‘chi MFYda 1 ta, Sho‘rsoy MFYda 2 ta, Ko‘lqamish MFYda 2 ta, Shirinobod MFYda 1 ta, O‘rta machay MFYda 1 ta, Munchoq MFYda 1 ta, Boshrabot MFYda 1 ta, Xo‘jaidod MFYda 1 ta, Bibishirin MFYda 1 ta, , sodir etilishiga yo‘l qo‘yilgan.

Tumandagi 39 ta mahalla fuqarolar yig‘inlaridan 11 tasida jinoyatlar sodir etilmagan, 6 tasida jinoyatlar kamaygan, 4 tasida barqaror saqlangan hamda 18 tasida yoki 46,1 foizida jinoyat oshib ketishiga yo‘l qo‘yilgan.

JINOYAT SALMOG‘I YUQORI MFYLAR:

Tumanning 7 ta Mahallalarida jinoyat salmog‘i yuqori bo‘lib, bular Inkabod, Tuzbozor, Yuqori Machay, Dexibolo, Obi, Kosiblar, O‘rta Machay mahallalari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Inkabod MFYda 12 oyda 5 ta jinoyat sodir etilib, umumiy jinoyatning 2,2 foizini;

Tuzbozor MFYda 12 oyda 6 ta jinoyat sodir etilib, umumiy jinoyatning 2,6 foizini;

Yuqori Machay MFYda 12 oyda 9 ta jinoyat sodir etilib, umumiy jinoyatning 4,0 foizini;

Dexibolo MFYda 12 oyda 5 ta jinoyat sodir etilib, umumiy jinoyatning 2,2 foizini;

Kosiblar MFYda 12 oyda 5 ta jinoyat sodir etilib, umumiy jinoyatning 2,2 foizini;

O‘rta machay MFYda 12 oyda 5 ta jinoyat sodir etilib, umumiy jinoyatning

2,2 foizini;

Obi MFYda 12 oyda 5 ta jinoyat sodir etilib, umumiy jinoyatning 2,2 foizini tashkil qiladi.

Yuqoridagilarga asosan Boysun tuman ichki ishlar bo'limi boshlig'i D.Boboyevning hisobotini tinglab, deputatlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohaza va takliflari inobatga olinib, xalq deputatlari Boysun tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Boysun tuman ichki ishlar bo'limi boshlig'i D.Boboyevning "Ichki ishlar idoralarining 2021-yil **12 oyi** davomida, **"mahallabay"** va **"fuqarobay"** ishlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish natijalari" bo'yicha ma'ruzasi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlardan kelib chiqib, "Barcha sa'y-harakatlar inson qadri uchun" degan ustuvor g'oya asosida xizmat faoliyatimiz tashkil etilsin.

3. Har bir oila va xonadondagi muhitni, shuningdek, huquqbuzarliklar sodir etilishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy infratuzilma va boshqa muammolarni o'rganish hamda bartaraf etish bo'yicha **"Xavfsiz xonadon"** va **"Xavfsiz hovli"** tizimi asosida chora-tadbirlar yo'lga qo'yilsin.

4. Boysun tumanida "mahallabay" va "fuqarobay" ishlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida ichki ishlar organlari hamda mas'ul idora hamda muassasalar tomonidan xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi ko'rsatib o'tilsin.

5. Tuzbozor, Yuqori Machay, Dexibolo, Obi, Kosiblar, O'rta Machay mahallalari Profilaktika inspektorlarini jinoyatlarga qarshi kurashish va huquqbuzarliklar profilaktikasi borasidagi faoliyati **"talab darajasida emas"** deb topilsin.

6. Kelgusida jinoyatchilikni jilovlashda asosiy e'tiborni aynan **ijtimoiy-maishiy muammolari mavjud** bo'lgan shaxslar bilan **"mahallabay"** va **"fuqarobay"** ishlash uslubida profilaktik chora-tadbirlar kuchaytirilsin.

7. Tuman sektor rahbarlari har oyda mahalla huquq-tartibot maskaniga rahbarlik qilayotgan profilaktika (katta) inspektori bilan shaxsan uchrashib, hududda jamoat xavfsizligini ta'minlash borasida aniqlangan muammoli

masalalarni hal etish choralari ko‘rilsin.

8. Amalga oshirilayotgan ijobiy amaliyot, **“mahallabay”** va **“fuqarobay”** ishlash tizimi, sodir etilgan jinoyatlarni fosh etilishi va profilaktik chora-tadbirlar asosida tahliliy-tanqidiy axborot tayyorlanib, ommaviy axborot vositalari orqali yoritib borilsin.

9. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlari, qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish maqsadida barcha mintaqalarda **“Smart mahalla”** elektron dasturi joriy qilinsin.

10. Tuman prokurori (M.Hayitov), tuman ichki ishlar bo’limi (D.Boboyev)lar:

jinoyatlarning ayrim turlari oshgan hududlardagi kriminogen vaziyatni tanqidiy tahlil qilib, ularning ortish sabablarini aniqlash va bartaraf qilishga qaratilgan qat’iy choralar ko‘rish;

Jinoyatchilikni jilovlash ijtimoiy-maishiy muammolari mavjud bo‘lgan shaxslar bilan **“mahallabay”** va **“fuqarobay”** uslubida ishlarni tashkil etish;

tumanda sodir etilayotgan har bir jinoyatlarni jinoyat sodir etilgan mahallalarda jamoatchilik vakillari, fuqarolar hamda jinoyat sodir etgan shaxslar bilan sektor rahbarlari, yoshlar ishlari agentligi, bandlik va tegishli idora tashkilotlar ishtirokida muhokama etib borish;

jinoyat sodir etgan shaxslarni oilaviy shart-sharoitlari, muammolari, jinoyat sodir etish sabablari **“mahallabay”** va **“fuqarobay”** uslubida chuqur tahlil qilinib, oldini olish bo‘yicha takliflar kiritish topshirilsin.

muqaddam sudlanganlar, uzoq muddat davomida chet elda bo‘lib qaytgan shaxslar, shartli ozod etilganlar, axloq tuzatish ishlari jazosini o‘tayotgan va boshqa toifaga kiruvchi shaxslarni, bandligini ta’minlash choralarini ko‘rib borish;

qidiruv ishlari jadallashtirilsin, bunda asosiy e’tibor diniy ekstremistik oqim a’zolariga nisbatan qidiruv ishlarini tashkillashtirishda joylardagi diniy ekstremizm va terrorizm yo‘nalishi hamda uning turli ko‘rinishlariga qarshi kurashish bo‘yicha targ‘ibot va tashviqot ishlarini olib borish;

axborot texnologiya soxasida, sanoat, bank, moliya-kredit tizimida, o‘rta va kichik biznes hamda ijtimoiy sohalarda davlat boshqaruvi, huquqni muhofaza

etish, nazorat va ijro etuvchi organlar xodimlari tomonidan sodir etilayotgan poraxo‘rlik, tovlamachilik, o‘zlashtirish, firibgarlik hamda boshqa iqtisodiy jinoyatlarni oldini olish maqsadida rahbar xodimlarni jiddiy ogohlantirib borish;

qo‘shni davlatlardan viloyat hududiga kirib kelayotgan va tranzit qilinayotgan narkotik moddalarni aniqlash maqsadida, muntazam YPX maskanlariga biriktirilgan mutasaddi rahbarlar va xodimlarning mas’uliyatini oshirish;

odam savdosi bilan jabrlangan fuqarolarning murojaatlar bo‘yicha to‘liq va xolisona tekshiruvlar o‘tkazilishini alohida nazoratga olish;

har oyda jinoyatchilikka qarshi kurashish, ularni fosh etish, qidiruvdagilarni ushlash, narkotik moddalarning noqonuniy aylanishining oldini olish va boshqa og‘ir turdagi jinoyatlarni fosh etish borasida prokuratura va ichki ishlar organlari xodimlarining faoliyatiga individual baho berib borish vazifalari yuklatilsin.

11. Jinoyat ishlari bo‘yicha tuman sudi (A.Raxmatov):

2021-yilning 1-noyabr kunidan o‘tkazilayotgan ma’muriy ishlar bo‘yicha sud majlislari har kuni **“masofaviy”** (onlayn) shaklda o‘tkazilishi ta’minlasin.

tumanda jamoatchilik ishtirokida sayyor sud majlislarini muntazam o‘tkazsin.

12.Tuman ichki ishlar bo’limi (D.Boboyev), tuman hokimining birinchi o’rinbosari (F.Normamatov), tuman moliya bo’limi (T.Jumayev)lar birgalikda:

jinoyat va huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish borasida bevosita xizmat ko‘rsatayotgan profilaktika inspektorlariga yetishmayotgan jami 9 ta xizmat xonalarini qurish yoki ajratish choralari ko‘rilsin.

13. Tuman ichki ishlar bo’limi (D.Boboyev):

- “Ichki ishlar organlari” to‘g‘risidagi qonunning 15-moddasiga asosan Profilaktika inspektorlarini xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlarining qarori bilan lavozimga tasdiqlash amaliyotini joriy etish choralari ko‘rilsin.

Boysun tumani hokimligi matbuot xizmati rahbari (Y.Xoliyorov) va “Boysun” gezetasi (X.Qarayev) sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida va tahliliy-tanqidiy ruhdagi ruknda jinoyatchilik oshgan mahallalar kesimida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

14. Tuman sektor rahbarlari tomonidan yuqorida berilgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan **har chorakda** xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma hisobot kiritib borsin.

15. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (F.Tursunqulov) zimmasiga yuklatilsin.

16. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **A.Ch.Jo'rayev**